TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

Contents

A. A. Djumanqulov *A. A. Beknazarov*	Psychological and Methodological Principles of Effective Lesson Time Management by Teachers	6
B. A. Khasanova *R. Abdullaev*	Digital Transformation in Central Asia: An Assessment Based on the Case of the Kyrgyz Republic	8
Yu. Akhmedov	The Strategic Importance of Crisis Communication in Ensuring National Stability in Polyethnic Societies	13
O. F. Egamberdiev	The Role, Determinants, and Effectiveness of Marketing Strategies in the Sustainable Development of the Transport System: Evidence from the Khorezm Region	17
R. Sh. Ibrahimova	Development History of Parasitology in Azerbaijan	20
B. O. Turaev	Ali Qushchi: The Scholar Who Introduced the Achievements of Ulugh Beg's Academy to the World	22
H. Hamidov	The History of Artists during the Reign of Amir Temur and the Timurid Period	26
S. Dj. Saidova	National Costume as a Historical and Spiritual Phenomenon	30
K. M. Yuldoshev	Innovation in Education	33
A. S. Kaliev *N. B. Bazarbaev*	Political Development and the Transformation of Civil Identity in Uzbekistan: The 690th Anniversary of Amir Temur and the Politics of	36
K. M. Yuldoshev *Z. Murodova*	Rabat-i Malik Caravanserai: A Key Waystation on the Great Silk Road	39
D. S. Saparboeva	Features of the Development of Logical Thinking in Primary School Mathematics Lessons	42
Sh. O. Sayfullaeva	Developing Reading Skills through Authentic Texts in Teaching Russian as a Foreign Language	44
N. Kh. Kholyigitova	The Role of Personal Values–Oriented Career Planning in Higher Education for Societal Development	46
M. N. Inatov	The Application of Sociological and Historical Analysis Methods in Letter Analysis	48
M. G. Nazarova	Socio-Psychological and Educational Strategic Directions for Preparing Future Engineers for Professional Activity in the Context of Societal Development	51
I. H. Jabrayilov	Common Turkish History: Research and Teaching Issues	54
O. V. Kon	Preparing the Next Generation of Social Educators in Higher Education: A Competency Model in the Context of Global Societal Challenges	56
D. A. Egamberdieva	The Semantic Characteristics of Nature Symbols in Uzbek and English Fairy Tales	60
Q. H. Inoyatov	The Scientific Legacy of Our Great Ancestors as a Source of Education and Moral Values	64
A. J. Toshboboev	The Integration of Social Sciences and the Education System for Sustainable Societal Development: An Analysis of Historical and Contemporary Approaches	66
G. B. Ernazarov	The Role of the Service Sector in the National Economy: Significance, Economic Analysis, and Strategies for Improvement	69
Ə. M. Zeynalov	Azerbaijan in French Literature	72
K. M. Gulomova	The Role of Modern Pedagogical Technologies in Enhancing Teachers' Professional Competence	76
S. Ibrohimov	Culture and Historical Heritage as Economic Resources: Innovative Management and Strategies for Sustainable Growth	79
J. O. Kucharov	Enhancing Workforce Potential in Small Business Enterprises in Uzbekistan	82

The Strategic Importance of Crisis Communication in Ensuring National Stability in Polyethnic Societies

Yunusjon Akhmedov (Researcher)[1]
ahmedovyunusjon5@gmail.com | ORCID: 0009-0005-8893-7002
[1.] "Temurbeks School" Military Academic Lyceum of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article examines crisis communication as a critical instrument for maintaining sociopolitical stability in polyethnic societies under the conditions of globalization, the rapid expansion of information flows, and ongoing digital transformation. Using Uzbekistan as a case study, the research analyzes the impact of conflict-generating risks in the digital environment, including hate speech, fake news, and misinformation, on the system of interethnic relations. As part of the study, a comparative analysis of sociological survey data collected from young and middle-aged respondents was conducted. The findings indicate that both groups demonstrate a relatively high level of trust in official media and state institutions; however, their responses to conflict-related digital content differ significantly. While middle-aged participants tend to adopt an active and institution-oriented approach, younger respondents are more likely to exhibit passive and observational behavioral patterns. The study highlights the strategic importance of effective crisis communication in strengthening social cohesion, preserving legitimacy, and ensuring national stability in an increasingly digitalized society.
Keywords: crisis communication, polyethnic society, national stability, digital environment, hate speech, fake news, sociological survey, middle-aged population, youth, legitimacy

Polietnik jamiyatlarda milliy barqarorlikni ta'minlashda inqiroziy kommunikatsiyaning strategik ahamiyati

Yunusjon Axmedov (tadqiqotchi)[1]
ahmedovyunusjon5@gmail.com | ORCID: 0009-0005-8893-7002
[1.] O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya.
Mazkur maqolada globallashuv, axborot oqimlarining keskin jadallashuvi va raqamli transformatsiyalar sharoitida polietnik jamiyatlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlashning muhim omili sifatida inqiroziy kommunikatsiya masalalari tadqiq etilgan. O'zbekiston misolida raqamli makonda yuzaga keladigan konfliktogen xatarlar, "adovat tili" (hate speech), feyk xabarlar hamda mish-mishlarning millatlararo munosabatlar tizimiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida yoshlar va o'rtayoshlilar orasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma qiyosiy tahlil qilingan. Aniqlanishicha, har ikki guruhda ham rasmiy OAV va davlat institutlarining axborotiga ishonch darajasi yuqori bo'lsada, raqamli makondagi konfliktogen kontentga munosabatda o'rtayoshlilarda faol-institutsional, yoshlarda esa passiv-kuzatuvchanlik xulq-atvor modeli ustunlik qiladi.
Kalit so'zlar: inqiroziy kommunikatsiya, polietnik jamiyat, milliy barqarorlik, raqamli makon, adovat tili, feyk xabarlar, sotsiologik so'rovnoma, o'rtayoshlilar, yoshlar, legitimlik

Kirish. Globallashuv, axborot oqimlarining keskin jadallashuvi, ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar va kommunikativ makonning kengayishi sharoitida davlat boshqaruvi tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri jamiyatda barqarorlikni saqlash, turli xavf va tahdidlarning oldini olish hamda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashdan iboratdir. Mazkur vazifa, ayniqsa, polietnik tarkibga ega davlatlarda tizimli hamda ko'p qirrali xususiyat kasb etadi. Bunday murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitda potentsial xavflarni neytrallashtirish va barqarorlikni ta'minlash bevosita boshqaruvning axborot xavfsizligi strategiyasiga, xususan, zamonaviy boshqaruvning strategik predmeti hisoblangan inqiroziy kommunikatsiyaga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Zero, inqiroziy kommunikatsiya davlat, jamiyat va fuqarolar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayonida favqulodda, ziddiyatli yoki yuqori xavfli vaziyatlarni boshqarishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U inqirozli holatlarda axborotni tezkor, aniq, xolis va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari asosida yetkazish orqali vahimani kamaytirish, ishonchni saqlash, ijtimoiy taranglikning oldini olish va boshqaruv institutlarining legitimligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Binobarin, polietnik davlatlarda mazkur kommunikatsiya shakli alohida konseptual ahamiyat kasb etadi; zero ko'p millatli jamiyatda noto'g'ri, kechikkan yoki biryoqlama axborot oddiy maishiy muammolarni ham tezda etnik tusga burishi, ijtimoiy nizolarni keskinlashtirishi, etnik sezgirlikni kuchaytirishi va milliy xavfsizlikka to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi tarixiy taraqqiyoti, etnik tarkibi, madaniy xilma-xilligi va bag'rikenglik an'analari bilan ajralib turuvchi davlatlardan biridir. Respublikada turli millat va elat vakillarining uzoq yillar davomida bir hududda tinch-totuv yashab kelayotgani mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining muhim asoslaridan birini tashkil etadi. Shu

bilan birga, mazkur polietnik tuzilma davlatdan yuqori darajada ehtiyotkor, puxta o‘ylangan va ilmiy asoslangan kommunikativ siyosat yuritishni talab etadi. Chunki millatlararo totuvlikni saqlash va mustahkamlash faqat normativ-huquqiy tartibga solish yoki ma’muriy boshqaruv bilan emas, balki samarali axborot-kommunikatsion mexanizmlar orqali ham ta’minlanadi.

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, bugungi raqamli axborot makonida inqirozlar ko‘pincha real voqealarning o‘zidan ham tezroq kommunikativ maydonda rivojlanadi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va turli norasmiy platformalar orqali tarqaladigan tasdiqlanmagan axborotlar jamiyatning ayrim qatlamlarida noto‘g‘ri tasavvurlar, vahima, stereotiplar va ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Raqamli axborot makonida nizoli kayfiyatlarning kuchayishiga ta’sir etuvchi omillardan biri ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan agressiv va adovatga yo‘naltirilgan fikrlardir. Ayniqsa, polietnik jamiyatlarda bunday kommunikativ holatlar millatlararo munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, stereotiplarni mustahkamlashi va ijtimoiy ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin. Biz maqolada ilgari surilgan muammo doirasida aholining ijtimoiy tarmoqlarni faol kuzatadigan ikki qatlami: yoshlar (16-20 yosh) va o‘rta yoshlilar (30-35 yosh) o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazib ularning javoblari orqali masalani yoritishga harakat qilib ko‘rdik.

Dastlab respondentlardan ijtimoiy tarmoqlarda biror millatga nisbatan “adovat tili”ga qanchalik tez-tez duch kelishini aniqlashga qaratilgan savol bilan murojaat qildik. O‘rta yoshlilar bergan javoblar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda biror millatga nisbatan “adovat tili”ga duch kelish holati respondentlar orasida turli darajada namoyon bo‘lgan. Jumladan, 100 nafar ishtirokchining 7 nafari, ya’ni 6,6 foizi bunday agressiv fikrlarga har kuni duch kelishini bildirgan. 32 nafar respondent, ya’ni 31,6 foiz ishtirokchi esa ba’zida shunday holatlarni kuzatishini qayd etgan. Eng katta ko‘rsatkich 43 nafar respondentga, ya’ni 43,3 foizga to‘g‘ri kelib, ular ijtimoiy tarmoqlarda millatga nisbatan adovat tiliga juda kam hollarda duch kelishini ma’lum qilgan. Shuningdek, 18 nafar respondent, ya’ni 18,3 foiz ishtirokchi hech qachon bunday holatlarni uchratmaganini bildirgan. Mazkur natijalar shuni anglatadiki, respondentlarning asosiy qismi adovat tilini doimiy va keskin ko‘rinishda emas, balki epizodik yoki cheklangan shaklda kuzatmoqda.

Biroq tahlil shuni ham ko‘rsatadiki, respondentlarning jami 38,2 foizi (6,6 foiz “har kuni” va 31,6 foiz “ba’zida”) ijtimoiy tarmoqlarda millatlararo agressiv mazmundagi fikrlarga ma’lum darajada duch kelmoqda. Bu esa raqamli axborot makonida adovatga asoslangan kommunikativ xatarlar mutlaqo yo‘q emasligini, aksincha, ular ma’lum darajada mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, polietnik jamiyat sharoitida bunday kontent stereotiplar, o‘zaro ishonchsizlik va salbiy kayfiyatlarning kuchayishiga zamin yaratishi mumkin. Shu bilan birga, respondentlarning 43,3 foizi bunday holatlarga juda kam duch kelishini, 18,3 foizi esa umuman uchratmaganini bildirgani ijtimoiy tarmoqlardagi adovat tili keng qamrovli va mutlaq ustun hodisa emasligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, mazkur so‘rovnoma natijalari millatlararo munosabatlar barqarorligini saqlashda ijtimoiy tarmoqlardagi nutq madaniyati, media monitoring, profilaktik tushuntirish ishlari hamda inqiroziy kommunikatsiyaning tezkor va muvozanatli mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Bugungi raqamli axborot makonida inqirozlar ko‘pincha real voqealarning o‘zidan ham tezroq kommunikativ maydonda rivojlanadi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va turli norasmiy platformalar orqali tarqaladigan tasdiqlanmagan axborotlar jamiyatning ayrim qatlamlarida noto‘g‘ri tasavvurlar, vahima, stereotiplar va ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin .

Mazkur masalaning amaliy ifodasini aniqlash maqsadida o‘rta yoshlilar o‘rtasida rasmiy ommaviy axborot vositalarining nizo keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan feyk (yolg‘on) xabarlarga qarshi turish salohiyatiga doir so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma doirasida respondentlarga quyidagi savol taqdim etildi: “Sizningcha, rasmiy OAV nizo keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan feyk (yolg‘on) xabarlarga samarali qarshi tura oladimi?”.

So‘rovnoma natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotda ishtirok etgan 100 nafar respondentning 72 nafari, ya’ni 70 foizi rasmiy OAVning feyk xabarlarga qarshi kurashish salohiyatiga ijobiy baho berib, “Ha, ularning dalillari ishonchli” degan javobni tanlagan. Mazkur ko‘rsatkich o‘rta yoshlilar orasida rasmiy axborot manbalariga nisbatan muayyan darajada ishonch shakllanganini anglatadi. Bu holat inqiroziy kommunikatsiyaning eng muhim shartlaridan biri bo‘lgan ishonchlilik omili amaliy jihatdan ham muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, 14 nafar respondent, ya’ni 15 foiz ishtirokchi “Yo‘q, rasmiy ma’lumotlar ko‘pincha zerikarli va qiziqarsiz” degan javobni tanlagan. Yana 14 nafar respondent (15 foiz) bu savolga javob berishga qiynalishini aytib o‘tgan. Mazkur natija rasmiy axborotning mazmuni ishonchli bo‘lishi bilan birga, uning auditoriyaga yetkazilish uslubi, shakli va kommunikativ jozibadorligi ham alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Chunki zamonaviy axborot makonida foydalanuvchi e’tiborini jalb etish, ayniqsa inqirozli vaziyatlarda, axborotning tezkorligi bilan bir qatorda uning ta’sirchan va qabul qilishga qulay shaklda berilishiga ham bog‘liqdir.

E’tiborga molik jihat shundaki, “Inqirozli vaziyatlarda davlat xabarlarini deyarli hech kim o‘qimaydi” degan javob variantini birorta respondent tanlamagan. Ushbu holat rasmiy axborot manbalari inqirozli vaziyatlarda mutlaqo e’tiborsiz qolmayotganini, aksincha, ma’lum darajada auditoriya tomonidan kuzatilishini bildiradi.

Nizolarning oldini olishga doir kommunikativ mexanizmlar samaradorligini to‘liqroq baholash uchun faqat institutsional yondashuvlarni emas, balki auditoriyaning o‘zi nizoli axborotga qanday munosabat bildirishini ham aniqlash muhimdir. Shu nuqtai nazardan, o‘rta yoshlilar orasida nizolar profilaktikasida qaysi siyosiy-kommunikativ usullar samaraliroq deb baholangan bo‘lsa, yoshlar orasida esa internetdagi millatlararo nizo qo‘zg‘atuvchi postlarga nisbatan amaliy xulq-atvor qanday shakllanishi o‘rganildi. Bu ikki guruh natijalarini qiyosiy tahlil qilish inqiroziy kommunikatsiyaning nafaqat mazmuni va usullarini, balki uning auditoriya tomonidan qabul qilinishi va unga javob qaytarish darajasini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, internetda turli millat vakillari o‘rtasida nizo keltirib chiqaruvchi postlarga nisbatan asosan passiv kommunikativ xulq modeli ustunlik qiladi. Jumladan, 100 nafar respondentning 78 nafari bunday postlarni ko‘rganda shunchaki o‘tkazib yuborishini bildirgan. 8 nafar respondent, o‘z qarashlarini himoya qilib, bahsga kirishishini, 8 nafar respondent esa bunday holatni izohlarda qabul qilib bo‘lmasligini yozishini, atigi 4 nafar ishtirokchi esa nashr ustidan shikoyat qilishini qayd etgan. Mazkur ko‘rsatkichlar yoshlar auditoriyasida millatlararo ziddiyat qo‘zg‘atishi mumkin bo‘lgan axborotga nisbatan faol fuqarolik-mediaviy munosabat yetarli darajada shakllanmaganini anglatadi. Boshqacha aytganda, yoshlarning mutlaq ko‘pchiligi nizoli kontentga qarshi turishning faol shakllaridan ko‘ra, uni e’tiborsiz qoldirish strategiyasini tanlamoqda.

O‘rta yoshlilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari

internet makonida millatchilik yoki murosasiz fikrlarga nisbatan qanday kommunikativ munosabat shakllanishini ko‘rsatadi. Jumladan, 100 nafar respondentning 75 foizi bunday kontentga e’tibor bermasligini, ya’ni vaqt sarflashni maqsadga muvofiq deb bilmasligini bildirgan. 16,5 foiz respondentlar bunday materiallar ustidan shikoyat qilish orqali munosabat bildirishini qayd etgan bo‘lsa, 8,5 foiz muallif bilan bahsga kirishib, uni fikridan qaytarishga harakat qilishini bildirgan. E’tiborlisi, respondentlarning hech biri millatchilik ruhidagi fikrlarga qo‘shilishini bildirmagan. Bu holat o‘rta yoshlilar orasida millatlararo murosasizlikka asoslangan fikrlarga nisbatan ma’lum darajada tanqidiy munosabat mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur natijalar yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma ma’lumotlari bilan qiyoslanganda ayrim o‘xshashlik va farqlar kuzatiladi. Yoshlar orasida ham millatlararo nizo keltirib chiqaruvchi postlarga nisbatan passiv kommunikativ xulq modeli ustun bo‘lib, respondentlarning 84 foizi bunday kontentni shunchaki o‘tkazib yuborishini bildirgan edi. O‘rtayoshlilar orasida ham shunga o‘xshash tendensiya kuzatilib, 75 foiz respondent millatchilik yoki murosasiz fikrlarga e’tibor bermaslikni afzal ko‘rishini qayd etgan. Shu bilan birga, o‘rtayoshlilar orasida bunday kontent ustidan shikoyat qilish ulushi (16,5 foiz) yoshlar orasidagi shunga o‘xshash ko‘rsatkichdan nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatiladi. Bu esa o‘rtayoshlilar orasida ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan konfliktogen kontentga nisbatan ma’lum darajada faolroq institutsional munosabat shakllanganini anglatadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ham yoshlar, ham o’rtayoshlilar orasida nizoli yoki millatchilik ruhidagi kontentga nisbatan passiv kuzatuvchanlik modeli ustunlik qiladi. Biroq o‘rtayoshli auditoriyada bunday materiallarga nisbatan shikoyat qilish yoki ularga qarshi munosabat bildirish ko‘rsatkichlari nisbatan yuqoriroq bo‘lib, bu ularning ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlik masalalariga nisbatan yuqori mas’uliyat hissi bilan izohlanishi mumkin. Shu jihatdan mazkur natijalar polietnik jamiyat sharoitida inqiroziy kommunikatsiya faqat rasmiy axborot berish bilan cheklanmasdan, auditoriyaning media xulqini faollashtirish, nizoli kontentga nisbatan konstruktiv va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga ham qaratilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur natijalar o’rtayoshlilar orasida olingan empirik ma’lumotlar bilan qiyoslanganda sezilarli farq kuzatiladi. Xususan, o‘rtayoshli respondentlarning 73 foizi nizolarning oldini olishda eng samarali usul sifatida rahbarlarning ochiq savollarga javob beradigan jonli efirlarini tanlagan edi. Ushbu natija o‘rtayoshlilar orasida nizolar profilaktikasida ochiqlik, tezkor izoh, shaffof axborot va institutsional muloqot ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Demak, o‘rtayoshli auditoriya nizoli vaziyatlarda faol, tashkillashtirilgan va rasmiy kommunikativ ta’sirni afzal deb bilayotgan bir paytda, yoshlar auditoriyasida kuzatilgan passiv reaksion xulq inqiroziy kommunikatsiyaning turli ijtimoiy qatlamlarda bir xil qabul qilinmasligini namoyon etadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, inqiroziy kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqishda auditoriyaning ijtimoiy-demografik va psixologik xususiyatlarini albatta hisobga olish lozim. Agar o‘rtayoshlilar uchun rasmiy subyektlarning ochiq va interaktiv muloqoti eng samarali profilaktik vosita sifatida namoyon bo‘lsa, yoshlar uchun bunday kommunikatsiya faqat axborot berish bilan cheklanmasdan, ularning media xulqini faollashtirish, raqamli mas’uliyatini oshirish va nizoli kontentga nisbatan konstruktiv javob ko‘nikmalarini shakllantirish bilan ham uyg‘unlashishi zarur. Shu jihatdan mazkur qiyosiy natijalar polietnik jamiyat sharoitida milliy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan inqiroziy kommunikatsiya ko‘p darajali va differensial xarakterga ega bo‘lishi kerakligini tasdiqlaydi. Ya’ni u bir tomondan rasmiy axborotning ochiqligi va ishonchliligini ta’minlashi, ikkinchi tomondan esa ayniqsa yoshlar orasida faol fuqarolik-mediaviy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Inqiroziy kommunikatsiya samaradorligi ko‘p jihatdan axborot manbalariga nisbatan shakllangan ijtimoiy ishonch darajasiga bog‘liq. Chunki inqirozli vaziyatlarda fuqarolar axborotni qaysi manbadan olishi va kimning fikriga ishonishi kommunikativ ta’sirning real samaradorligini belgilaydi . Shu sababli yoshlar auditoriyasi orasida internet makonida qaysi axborot subyektlariga ko‘proq ishonch bildirilishini aniqlash maqsadida so‘rovnoma doirasida maxsus savol kiritildi. Mazkur savol yoshlarning rasmiy ommaviy axborot vositalari, blogerlar, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari hamda ekspertlar fikriga bo‘lgan ishonch darajasini aniqlashga qaratilgan.

Yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari internet makonida axborot manbalariga nisbatan shakllangan ishonch darajasi haqida muhim empirik ma’lumotlarni beradi. Xususan, 100 nafar respondentning 56 foizi internetda davlat rasmiy ommaviy axborot vositalariga ko‘proq ishonishini bildirgan. Shu bilan birga, 32 foiz ishtirokchi muayyan sohadagi mutaxassis va ekspertlar fikrini ishonchli deb hisoblagan. Respondentlarning 8 foizi ijtimoiy tarmoqlardagi do‘stlari va tanishlariga, 4 foizi esa mashhur blogerlar va inflyuenserlarga ko‘proq ishonishini qayd etgan. Mazkur natijalar yoshlar auditoriyasi orasida rasmiy axborot manbalari hamda professional ekspertlar fikriga ishonch nisbatan yuqori ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, blogerlar va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga ishonch darajasi ancha past ekani kuzatiladi. Bu holat yoshlar orasida axborot manbalarini tanlashda ma’lum darajada tanqidiy yondashuv shakllanayotganini anglatadi.

O‘zbekiston polietnik sharoitida inqiroziy kommunikatsiyani takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni taklif sifatida ilgari suramiz: Avvalo tadqiqotlardan kelib chiqib, millatlararo barqarorlikka yo‘naltirilgan inqiroziy kommunikatsiya modelini ishlab chiqish lozim. Tezkor rasmiy axborot berish mexanizmi, ijtimoiy tarmoqlarda konfliktogen kontentni monitoring qilish tizimi, jamoatchilik bilan ochiq kommunikatsiya platformalari, millatlararo murosani mustahkamlovchi ijobiy kommunikatsiya kontenti model tarkibidan joy olishi zarur.

Ikkinchidan, “Erta kommunikativ ogohlantirish” (Early Communication Warning) tizimini joriy etish. Mazkur tizim quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi kerak:

Ijtimoiy tarmoqlarda millatlararo keskinlikka oid diskursni monitoring qilish;

1. konfliktogen axborot tarqalishini tezkor aniqlash;
2. rasmiy izoh va tushuntirishlarni tezkor e’lon qilish;
3. ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri talqinlarni bartaraf etuvchi kommunikativ kampaniyalar tashkil etish.

Bu mexanizm millatlararo keskinlikning kommunikativ bosqichda oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, blogerlar va ijtimoiy tarmoq yetakchilari uchun “ijtimoiy mas’uliyat kodeksi”ni ishlab chiqish. Ushbu kodeks quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1. millatlararo adovatni qo‘zg‘atuvchi kontentni tarqatmaslik;
2. stereotipik yoki diskriminatsion ifodalardan foydalanmaslik;
3. ijtimoiy ahamiyatga ega mavzularda tekshirilgan axborotni e’lon qilish;
4. jamoatchilikka nisbatan kommunikativ mas’uliyat tamoyiliga amal qilish.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, inqiroziy kommunikatsiya favqulodda yoki ziddiyatli vaziyatlarda axborotni tezkor, aniq va ishonchli shaklda yetkazish orqali ijtimoiy noaniqlikni kamaytirish, jamoatchilik orasida vahima va noto‘g‘ri talqinlarning oldini olish hamda davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, polietnik jamiyatlarda kommunikatsiya jarayonida etnik identitet, tarixiy xotira va madaniy farqlar kabi omillar muhim rol o‘ynaydi.

Polietnik jamiyat sharoitida inqiroziy kommunikatsiya millatlararo munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kommunikativ keskinliklarni yumshatish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim siyosiy-kommunikativ mexanizmi hisoblanadi. Raqamli axborot makonida millatlararo munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadigan konfliktogen kontent mavjud bo‘lib, uning jamiyatga ta’siri ko‘p jihatdan auditoriyaning kommunikativ xulq-atvoriga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Inqiroziy kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqishda auditoriyaning ijtimoiy-demografik xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

Zamonaviy kommunikatsiya makonida internet platformalari va blogerlarning jamoatchilik fikriga ta’siri ortib borayotganligi muhitida inqiroziy kommunikatsiya siyosatini amalga oshirishda raqamli platformalarning rolini kuchaytirish zarur. Milliy barqarorlikni ta’minlash uchun inqiroziy kommunikatsiya tizimi rasmiy OAV, raqamli platformalar, ekspertlar hamjamiyati va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi integratsiyalashgan kommunikativ hamkorlikka asoslanishi lozim.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145
2. W. Timothy Coombs. Ongoing crisis communication: planning, managing, and Responding. SAGE Publications. Los Angeles. 2018.
3. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2019.
4. Eriksson M. “Lessons for Crisis Communication on Social Media: A Systematic Review of What We Know”. International Journal of Strategic Communication, 2018.
5. Coombs, W. T., & Holladay, S. J. The Handbook of Crisis Communication. Wiley-Blackwell. 2012.